

Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-iyul oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1- avgust holatiga ko'ra, viloyatda 4 036 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 724 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,9 %) Urganch shahriga, 491 tasi (12,2 %) Urganch tumaniga, 442 tasi (11,0 %) Xonqa tumaniga, 360 tasi (8,9 %) Qo'shko'pir tumaniga va 295 tasi (7,3 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2026-yilning yanvar-iyul oylarida 779 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, ularning 104 tasi Urganch shahriga, 102 tasi Urganch tumaniga, 86 tasi Shovot tumaniga, 69 tasi Xonqa tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni
1-iyul holatiga ko'ra



II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 23 398,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	23 398,2	108,3
Urganch shahri	3 358,7	109,5
Xiva shahri	399,0	119,1
tumanlar:		
Bog'ot tumani	467,0	118,5
Gurlan tumani	356,1	116,5
Qo'shko'pir tumani	651,3	115,2
Urganch tumani	1 261,8	112,6
Hazorasp tumani	615,9	114,5
Tuproqqal'a tumani	7 338,8	93,6
Xonqa tumani	1 150,8	110,8
Xiva tumani	591,7	113,5
Shovot tumani	885,7	110,3
Yangiariq tumani	731,4	115,1
Yangibozor tumani	721,6	109,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (117 842,0 ming so'm), Urganch shahrida (21 261,9 ming so'm) o'rtacha viloyat ko'rsatkichidan (10 009,9ming so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Xiva shahrida (117,3 %), Bog'ot tumanida (116,6 %), Gurlan tumanida (114,4 %), Qo'shko'pir tumanida (113,5 %), Yangiariq tumanida (113,3 %) va Hazorasp tumanida (112,5 %) qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyul oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 22 444,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,9 % ni tashkil etgani holda, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 2,9 mlrd so'm (0,01 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 787,7 mlrd so'm (3,4 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 162,9 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-iyul oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 48 898,0 tonna paxta tolasi (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 92,2 % oshgan), 3 455,8 tonna o'simlik yog'i (65,4 % ga oshgan), 10 597,6 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (48,4 % ga kamaygan) hamda 42 663 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (7,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul*	2026-yil yanvar-iyul
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	48 884	51 587	47 521
Maxsus yengil avtomobillar, dona	15 118	28 034	30 355
Paxta tolasi, t	53 216,8	49 441,0	79 468,3
Shakar, t	112 888,5	76 910,3	-
O'simlik yog'i, t	4 200,0	2 090,0	3 455,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	19 832,1	24 776,5	10 597,6
Paxta chigiti, t	79 653,9	81 880,0	115 158,8
Paxtadan yigirilgan ip, t	21 169,3	27 964,1	46 637,1

**2024-2025-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,0 % (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 140,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2025-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 139,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2025-yilning yanvar-iyul oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 31,9 % (34,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,9 % (5,4 %), quyi texnologiyali 59,0 % (56,0 %) ni tashkil etgan.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-iyul oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar-iyul oylarida 47 521 dona “ Damas ” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,9 % ga kamaygan), 30 355 dona maxsus yengil avtomobillari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,3 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.

Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil va maxsus yengil avtomobillar, donada
yanvar-iyul oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-iyul oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 89,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 97,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul*	2026-yil yanvar-iyul
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	731,8	716,5	655,3
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	731,8	716,5	655,3
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	66,9	93,8	91,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025 -yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 2,4 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 15,6 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 47,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul*	2026-yil yanvar-iyul
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	13 931 874,0	9 021 126,0	7 617 896,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha	95 942 925,0	122 852 355,0	125 786 773,0

xizmatlar, ming so'm

Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	21 052 241,0	33 434 708,0	58 653 256,0
---	--------------	--------------	--------------

**2024-2025-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslar bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
U.Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

